



UMUMIY O`RTA VA O`RTA MAXSUS TA`LIM TIZIMI ANIQ VA TABIIY FANLAR O`RNINI OSHIRISHNI TA`MINLASHNING METODIK ASOSLARI

O`qituvchi: Mardayev Nurmurod Gulmurodovich

Annotasiya: *Umumiy o`rta va o`rta maxsus ta`lim tizimida o`qitish metodikasi va aniq fanlarni o`qitishda amaliy mashg`ulotlar, o`quvchilarning tushunchalarini mustahkamlash, fanlarni amaliyotga aylantirish uchun muhimdir. Bu mashg`ulotlar o`quvchilarning nazariy bilimlarini amaliyotga aylantirish, ularning qabul qilish qobiliyatini rivojlantirish va fanni o`rganishga qiziqishlarini oshirishda yordam beradi. Amaliy mashg`ulotlar o`quvchilarning fanni tushunishini kuchaytiradi va o`rganish jarayonini qiziqarliroq qiladi. Bu esa o`quvchilarning motivatsiyasini oshiradi va ularning fanni o`rganishga qiziqishini yuksaltiradi.*

Kalit so`zlar: *Umumiy o`rta va o`rta maxsus ta`lim tizimi, akademik litseylar, o`qitish metodikasi, ta`lim jarayonlari, interfaol usullar, bilim sifati.*

Aniq va tabiiy fanlar o`quvchi yoshlar bilimining asosiy poydevorini tashkil etishi bilan birga innavatsion texnologiyalar, sanoat, ishlab chiqarish, iqtisodiy barqarorlikni ta`minlashda muhim o`rin egallaydi. Ushbu fanlar bo`yicha o`rta ta`lim va o`rta maxsus ta`lim tizimi, akademik litseylarda matematika, fizika, kimyo, biologiya, geografiya, informatika o`quv predmetlari kiritilgan.

Islohotlar jarayonida ushbu yo`nalishdagi fanlar bo`yicha o`quv dastur va rejalarni yangilash, o`qitishni sifat va mazmun jihatdan yanada takomillashtirishga alohida e`tibor qaratilmoqda.



Umumta'lim maktablari va akademik litseylarni eng so'nggi rusumdagi kompyuter jixozlari, maxsus o'quv xonalari, fan kabinetlariga oid zamonaviy uskunarlar, ilg'or laboratoriya jixozlari, zaruriy o'quv vositalari bilan ta'minlash yuzasidan salmoqli ishlar bajarilmoqda.

O'qituvchilarga metodik yordam ko'lamli kengaytirish maqsadida aniq va tabiiy fanlar yonalishida ko'plab ma'rifiy plakatlar, atlas va xaritalar, elektron darsliklar, virtual laboratoriya va murakkab fanlarni o'rgatish bo'yicha ilg'or tajribalar asosidagi namunaviy videodarslar yaratilib, joylarga yetkazilmoqda. Barcha hududlarda videokonferensiya aloqa orqali "Masofaviy metodik xizmat tizimi" ning yo'lga qo'yilganligi pedagoglar bilim darajasi, kasb mahoratini oshirishda muhim omil bo'lmoqda. Shu orqali ilg'or pedagogik metodlar ommalashib, o'zaro tajriba almashish keng quloq yoymoqda.

O'zbekiston o'quvchilari xorijiy davlatlarda matematika, kimyo fanlari bo'yicha o'tkazilayotgan xalqaro fan olimpiadalarida g'olib va sovrindor bo'layotgani aniq va tabiiy fanlar yo'nalishi ravnaqi yo'lida davlatimiz tomonidan ko'rsatilayotgan g'amxo'rlikning yorqin samarasidir.

Dars jarayonida ilg'or pedagogik, axborot-kommunikatsion texnologiyalardan foydalanish bilan birga o'quvchi va talabalarni fanga qiziqitira olish muhim rol o'ynaydi. Mavzularni hayotiy misollar, ishlab chiqarish, sanoat korxonalaridagi jarayonlar va iqtisodiyotni rivojlantishga doir biznes rejalar tuzishga ilhom baxsh etuvchi g'oyalar bilan uzviy bog'lashga, darsdan tashqari fan to'garaklari ishini yanada qiziqarli va jonli o'tishga intilish lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Nuriddinov B. «Kasb ta'limi o'qituvchilari malakasini oshirishda faol o'qitish metodlaridan foydalanishning ilmiy pedagogik asoslari». nomzodlik dissertatsiyasi. – T.,2002.



2. Farberman B. L. Razdatochniye materiali metodicheskogo seminara po predevim pedagogicheskim texnologiyam. – T.: 2005.
3. Ilg`or pedagogik texnologiyalar asosida dars o`tish yullari. O`quv uslubiy ishlanmalar to`plami. – T.: TDIU. 2005.
4. Axmedov SH.. Uzluksiz ta`lim, fan va ishlab chiqarishning integratsiyalashuvi. – T., 2005.
5. Shamsiyev X. Darzlarni zamonaviy tashkil etishning shakl va uslublari. – Toshkent. 2005.
6. Uzoqova G.S., Tursunov. Q. Sh., Qurbonov M. Fizika o`qitishning nazariy asoslari.-T., O`zbekiston, 2008.